



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
Nabijonova Feruza Valijon qizi	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
O'rinova Nilufar Muxammadovna	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
Tashpulatova Nodira Olimjon qizi	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
Umbarova Nasiba Xolboy qizi	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ilhombek o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
Abduraxmanova Charos Burxanovna	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
Allanazarova Sadoqat Azimovna	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
Jumanov Sherzod Saloyevich	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
Qahramonova Xumora Qahramonovna	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафаэловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim To'vashevich	



QIZLAR TARBIYASIDA MAHALLA-OILA-MAKTAB HAMKORLIGI MEXANIZMLARI

Choriyeva Dildora Ismat qizi

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
 tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada qizlar tarbiyasida oila, mahalla va maktab hamkorligining pedagogik mexanizmlari yoritiladi. Zamonaviy sharoitda qizlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar, o'ziga ishonch, ijtimoiy faollik, liderlik va kasbiy yo'nalishni shakllantirishda ota-onalar mas'uliyatini oshirishning ahamiyati tahlil qilinadi. Oila ta'lim salohiyatining tarkibiy qismlari, qizlar tarbiyasida ijtimoiy hamkorlikning samarali shakllari hamda metodik tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: qizlar tarbiyasi, oila ta'lim salohiyati, ijtimoiy hamkorlik, ma'naviyat, o'ziga ishonch, barkamol avlod, zamonaviy maktab.

Abstract: This article examines the pedagogical mechanisms of cooperation among the family, mahalla, and school in the upbringing of girls. It analyzes the importance of increasing parental responsibility in fostering moral and spiritual values, self-confidence, social activity, leadership skills, and career orientation among girls in modern conditions. The article highlights the structural components of the family's educational potential, effective forms of social partnership in girls' upbringing, and provides methodological recommendations.

Key words: girls' upbringing, family educational potential, social cooperation, spirituality, self-confidence, well-rounded generation, modern school.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические механизмы взаимодействия семьи, махалли и школы в воспитании девочек. Анализируется значение повышения ответственности родителей в формировании у девочек духовно-нравственных качеств, уверенности в себе, социальной активности, лидерских способностей и профессиональной ориентации в современных условиях. Освещаются структурные компоненты образовательного потенциала семьи, эффективные формы социального сотрудничества в воспитании девочек, а также предлагаются методические рекомендации.

Ключевые слова: воспитание девочек, образовательный потенциал семьи, социальное сотрудничество, духовность, уверенность в себе, гармонично развитое поколение, современная школа.

KIRISH

O'zbek xalqi azaldan oilaparvarligi va farzandparvarligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, qizlar tarbiyasi milliy qadriyatlarimizda alohida o'rin tutadi. Qizlar kelajakda oila tarbiyachisi, jamiyatning ma'naviy tayanchi, yetuk mutaxassis va rahbar sifatida shakllanishi uchun ularni bolalikdan ma'naviy, axloqiy va intellektual jihatdan barkamol etib tarbiyalash zarur.

Bugungi globallashuv davrida internet, ommaviy madaniyat va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri ortib borayotgan bir paytda qizlar tarbiyasiga yanada mas'uliyat bilan yondashish talab etilmoqda. Zamonaviy ota-onalar qizlarini yaxshi tarbiyalashni istaydilar, biroq ko'pincha qanday metodlardan foydalanishni bilmaydilar. Shu sababli oila, mahalla va maktab hamkorligini kuchaytirish dolzarb pedagogik vazifadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qizlar tarbiyasida oila, mahalla va maktab hamkorligi masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan. Jumladan, L.S. Vygotskiy shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. A. Bandura esa ijtimoiy o'rganish nazariyasida bolalar xulq-atvori va qadriyatlari avvalo kuza-tish hamda taqlid qilish orqali shakllanishini asoslab bergan.

Mahalliy olimlardan O. Musurmonova yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda oila va ta'lim muassasalari hamkorligining muhimligini qayd etgan. V. Karimova oiladagi sog'lom psixologik muhit shaxsning ijtimoiy faolligi

va o'ziga ishonchini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, qizlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda kasbiy yo'nalishini shakllantirish masalalari zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Tahlil qilingan adabiyotlar qizlar tarbiyasida oila, mahalla va maktabning o'zaro hamkorligi barkamol, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishning muhim pedagogik sharti ekanligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qizlar tarbiyasida mahalla, oila va maktab hamkorligining pedagogik mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan nazariy va tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik va sotsiologik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish hamda tizimlashtirish usullari qo'llanildi. Shuningdek, qizlar tarbiyasida oila, mahalla va maktabning o'zaro hamkorlik shakllari hamda ularning tarbiyaviy imkoniyatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida qizlarning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qizlar tarbiyasida oilaning ta'lim salohiyati

Oila qiz bola shaxsining shakllanishida birlamchi va hal qiluvchi ijtimoiy institut hisoblanadi. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsning ma'naviy-axloqiy qarashlari, ijtimoiy xulq-atvori, o'ziga bo'lgan munosabati hamda hayotiy qadriyatlari avvalo oilaviy muhit ta'sirida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, oilaning ta'lim salohiyati qizlarning barkamol, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy faol shaxs sifatida voyaga yetishida asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Oilaning ta'lim salohiyati bir qator tarkibiy komponentlardan iborat bo'lib, ular o'zaro bog'liq holda qizlar tarbiyasining samaradorligini ta'minlaydi.

*Birinchi*dan, ota-onaning pedagogik savodxonligi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik savodxonlik deganda ota-onaning yosh xususiyatlari psixologiyasi, tarbiya metodlari, kommunikativ madaniyat, konflikologiya va motivatsion yondashuvlar haqida bilimga ega bo'lishi tushuniladi. Pedagogik savodxon ota-onalar qizlarda ijobiy o'zini anglash, mas'uliyat hissi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi. Aksincha, pedagogik bilimlarning yetishmasligi ortiqcha nazorat, beparvolik yoki avtoritar munosabatlarga olib kelib, qizlarning psixologik rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

*Ikkinchi*dan, oiladagi ma'naviy-psixologik muhit qizlar tarbiyasining barqarorligini ta'minlovchi omildir. Mehr-oqibat, hurmat, o'zaro tushunish, ochiq muloqot va qo'llab-quvvatlash muhitida ulg'aygan qizlarda o'ziga ishonch, emotsional barqarorlik va ijtimoiy faollik yuqori bo'ladi. Oiladagi konfliktlar, zo'ravonlik yoki befarqlik esa qizlarda qo'rquv, o'ziga ishonchsizlik va ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklarini keltirib chiqarishi mumkin.

*Uchinchi*dan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat qizlar tarbiyasida muhim metodik asos hisoblanadi. Milliy an'analar, odob-axloq me'yorlari, mehnatsevarlik, hayo va kamtarlik kabi fazilatlar qizlarning ma'naviy dunyosini boyitadi. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyat talablariga mos ravishda gender tenglik, inson huquqlari, bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini ham shakllantirish zarur.

*To'rtinchi*dan, ota-onaning shaxsiy namunasining ijobiyligi qizlar tarbiyasining eng kuchli pedagogik vositalaridan biridir. Ota-onaning o'zaro hurmatga asoslangan munosabati, mehnatsevarligi, kitobxonligi, halolligi va madaniyati qizlar uchun bevosita namuna bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qizlar ota-onasining xulq-atvorini ongli va ongsiz ravishda takrorlashga moyil bo'ladi.

*Beshinchi*dan, qizlarning qiziqish va qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash oilaning ta'lim salohiyatini belgilovchi muhim mezondir. Qizlarning ilmiy, ijodiy, sport yoki texnologik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish ularning o'ziga ishonchini oshiradi hamda kasbiy yo'nalishini belgilashda yordam beradi. Oila tomonidan qo'llab-quvvatlangan qizlar jamiyatda faol, tashabbuskor va lider sifatida shakllanishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

Oilaviy tarbiya natijasida qizlarda o'ziga ishonch, hayo-iffat, mustaqil fikrlash, mas'uliyat, liderlik va ijtimoiy faollik kabi fazilatlar shakllanadi. Agar oilada mehr-oqibat, adolat, o'zaro hurmat va ma'naviy birlik hukm sursa, qizlar ruhiy jihatdan sog'lom, ijtimoiy faol va mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega shaxs bo'lib ulg'ayadi.

Xulosa qilib aytganda, oilaning ta'lim salohiyatini rivojlantirish qizlar tarbiyasining sifatini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, oilaviy muhitni sog'lomlashtirish va qizlarning qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash orqali barkamol, bilimli va ma'naviyatli qizlar avlodini tarbiyalash mumkin.



Mahalla - qizlar tarbiyasining ijtimoiy makoni

Mahalla qadimdan jamiyatning eng muhim ijtimoiy-pedagogik institutlaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, unda avlodlararo tajriba, milliy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlar uzviy ravishda yosh avlodga yetkazib kelingan. Qizlar tarbiyasida mahalla muhitining ahamiyati, ayniqsa, katta, chunki mahalla oiladan keyingi ikkilamchi ijtimoiylashuv makoni bo'lib, unda qizlar jamiyat qoidalari, jamoaviy munosabatlar madaniyati, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr ko'rsatish kabi ijtimoiy xulq-atvor normalari o'zlashtiradi.

Mahalla muhitida qizlar ijtimoiy mas'uliyatni his qilish, jamoada ishlash, milliy an'ana va qadriyatlarni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli mahalla qizlar tarbiyasining muhim ijtimoiy makoni sifatida ularning ma'naviy, psixologik va kasbiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mahallaning qizlar tarbiyasidagi pedagogik vazifalarini quyidagi yo'nalishlar orqali tizimlashtirish mumkin:

*Birinchi*dan, qizlar klublari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish. Mahallalarda "Qizlar klubi", "Kitobxon qizlar", "Iqtidorli qizlar" kabi to'garaklar tashkil etilishi qizlarda ijodkorlik, nutq madaniyati, kitobxonlik, liderlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday tadbirlar qizlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bilan birga, ularni salbiy ijtimoiy ta'sirlardan himoya qiladi.

*Ikkinchi*dan, erta nikoh va zo'ravonlikning oldini olish. Mahalla fuqarolar yig'ini, xotin-qizlar faollari va profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish, oilaviy zo'ravonlikka qarshi targ'ibot olib borish, psixologik maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon qizlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlab, ularning xavfsiz muhitda rivojlanishiga xizmat qiladi.

*Uchinchi*dan, kasb-hunar to'garaklari orqali qizlarni qo'llab-quvvatlash. Tikuvchilik, IT, dizayn, pazandachilik, hunarmandchilik, til o'rganish kabi yo'nalishlarda tashkil etilgan to'garaklar qizlarning qobiliyatlarini rivojlantiradi, kasbiy orientatsiyani shakllantiradi va iqtisodiy mustaqillik hissini uyg'otadi. Bu esa qizlarda o'ziga ishonchni oshiradi va kelajak hayotiga puxta tayyorlaydi.

*To'rtinchi*dan, faol ayollar va onalar mentorligini yo'lga qo'yish. Mahalladagi tajribali ayollar, pedagoglar, shifokorlar, tadbirkorlar va san'atkorlar qizlar uchun mentor sifatida biriktirilsa, ular qizlarga hayotiy tajriba, kasbiy maslahat va ma'naviy ko'mak berishi mumkin. Mentorlik tizimi qizlarda ijtimoiy faollik, liderlik va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Shuningdek, mahalla qizlarni ijtimoiy loyihalar, ekologik aksiyalar, sport va madaniy tadbirlarga jalb etish orqali ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlaydi. Mahalla muhitida ijobiy jamoatchilik nazorati mavjud bo'lib, u qizlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlaydi va salbiy illatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mahalla qizlar tarbiyasining muhim ijtimoiy makoni sifatida oila va maktab bilan hamkorlikda qizlarda ma'naviy barkamollik, ijtimoiy faollik va kasbiy yo'nalishni shakllantirishga xizmat qiladi. Mahalla tizimida tashkil etilgan maqsadli pedagogik faoliyat qizlarni jamiyatning faol, ongli va mas'uliyatli a'zolari sifatida tarbiyalashga zamin yaratadi.

Maktabning qizlar tarbiyasidagi roli

Maktab qizlarning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishida asosiy pedagogik muhitlardan biri hisoblanadi. Maktab nafaqat bilim beruvchi muassasa, balki shaxsni har tomonlama shakllantiruvchi tarbiya makoni sifatida qizlarda mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik, o'ziga ishonch va kasbiy yo'nalishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida qizlar tarbiyasi gender sezgir pedagogik yondashuv, individual rivojlanish strategiyalari va ijtimoiy hamkorlik asosida olib borilishi muhimdir.

Maktabning qizlar tarbiyasidagi roli bir necha metodik yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

*Birinchi*dan, ma'naviyat va tarbiya darslari. Ushbu darslar orqali qizlarda milliy qadriyatlarga hurmat, ma'naviy poklik, madaniy xulq-atvor, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik ongini shakllantirish mumkin. Ma'naviyat darslari interfaol metodlar - munozara, rolli o'yinlar, keys-stadilar orqali tashkil etilganda qizlarning mustaqil fikrlash va axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

*Ikkinchi*dan, psixologik treninglar va liderlik mashg'ulotlari. Maktab psixologi va sinf rahbarlari tomonidan o'tkaziladigan treninglar qizlarda o'zini anglash, o'ziga ishonch, stressni boshqarish, kommunikativ madaniyat va liderlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ayniqsa, o'smirlik davrida qizlarning emotsional holatini barqarorlashtirish va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda bunday mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

*Uchinchi*dan, kasb tanlash bo'yicha mahorat darslari. Zamonaviy maktab qizlarda kasbiy orientatsiyani erta bosqichdan shakllantirishi zarur. Turli kasb egalari bilan uchrashuvlar, mahorat darslari, ekskursiyalar va amaliy mashg'ulotlar qizlarning qiziqishlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa kelajakda ularning mustaqil kasb tanlashiga, iqtisodiy faolligiga va jamiyatda munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, sport va san'at to'garaklari. Sport mashg'ulotlari qizlarda jismoniy sog'lomlik, intizom va irodani shakllantirsa, san'at to'garaklari ijodkorlik, estetik did va o'zini ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday faoliyatlar qizlarning ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularni salbiy ta'sirlardan himoya qiladi.

Beshinchidan, ijtimoiy loyihalarda ishtirok. Maktabda tashkil etilgan ekologik aksiyalar, xayriya tadbirlari, volontyorlik faoliyati qizlarda fuqarolik mas'uliyati, hamdardlik va jamoaviylikni rivojlantiradi. Ijtimoiy loyihalarda ishtirok etgan qizlar o'zlarini jamiyatning faol a'zosi sifatida his etadi.

Maktabning qizlar tarbiyasidagi samaradorligi oila va mahalla bilan hamkorlik darajasiga bevosita bog'liq. Maktab ota-onalar bilan muntazam muloqot olib borib, qizlarning psixologik holati, qiziqishlari va muammolarini aniqlashi, individual yondashuv asosida pedagogik yordam ko'rsatishi zarur. Ota-onalar yig'ilishlari, seminarlar, psixologik maslahatlar va qo'shma tarbiyaviy tadbirlar orqali uch tomonlama hamkorlik mustahkamlanadi.

Shuningdek, zamonaviy maktabda gender tenglik tamoyillari asosida ta'lim muhitini yaratish, qizlarning STEM yo'nalishlariga qiziqishini oshirish, ularning liderlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash muhim vazifalardan biridir. Bu orqali qizlar o'z imkoniyatlarini anglab, jamiyatda faol, bilimli va ma'naviyatli shaxs sifatida shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktab qizlar tarbiyasida tizimli pedagogik faoliyat olib boruvchi asosiy institut sifatida ularning ma'naviy barkamolligi, kasbiy yo'nalishi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Oila va mahalla bilan hamkorlikda olib borilgan tarbiyaviy ishlar esa qizlarning har tomonlama kamol topishiga mustahkam zamin yaratadi.

Qizlar tarbiyasi jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy barqarorligi va milliy taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Shaxs tarbiyasi birgina muhit ta'siri bilan emas, balki oila, mahalla va maktabning uzviy hamkorligi natijasida shakllanadi. Ushbu uch institutning o'zaro integratsiyasi pedagogika va sotsiologiya fanlarida ijtimoiylashtirish mexanizmi sifatida talqin qilinadi.

Oila - shaxsning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti bo'lsa, mahalla - ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni mustahkamllovchi makon, maktab esa ilmiy bilimlar va kasbiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi muassasa hisoblanadi. Shu sababli qizlar tarbiyasida mazkur institutlarning uzviy hamkorligi zarur pedagogik shartlardan biridir.

Hamkorlikning asosiy maqsadi - qizlarda ijtimoiy faollik, ma'naviy poklik, mustaqil fikrlash, liderlik fazilatlarini, kasbiy yo'nalish tanlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Qizlar tarbiyasida oila-mahalla-maktab hamkorligi uzluksiz va tizimli bo'lishi zarur. Diagnostika, integrativ rejalashtirish, mentorlik, pedagogik ma'rifat va raqamli hamkorlik mexanizmlari qizlarning ma'naviy-axloqiy kamoloti va ijtimoiy muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Bunday hamkorlik orqali jamiyatda sog'lom, ma'rifatli va faol ayollar avlodi shakllanadi. Bu esa milliy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020.
3. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. - Toshkent, 2019.
4. Musurmonova O. O'quvchilarda ma'naviy madaniyatni shakllantirish texnologiyalari. - Toshkent.
5. "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-401-sonli qaror.
6. "O'smirlar psixologiyasi va o'smir xulq-atvorining o'ziga xosligi". M.Q.Qodirova, N.Naxalboyeva.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.